

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**AXBORATLASHGAN JAMIyatDA YOSHLAR MA'NAVIyatIGA PSIXOLOGIK  
TA`SIRLAR**

**Ernazarova Shoira Narzullayevna**

*Respublika musiqa va san'at kolleji*

*Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha direktor o'rinnbosari*

**Annotatsiya:** Kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining takomillashuvi va shu bilan bir qatorda internetning ommalashuvi bugungi yoshlarning ongiga bevosita va bilvosita kirib bormoqda. SHu sababdan yoshlarning internetdan to'g'ri va oqilona foydalanishining falsafiy metodologik tahlili bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi.

**Tayanch so'zlar:** axborot, texnologiya, demokratiya, texnika, strukturalashgan axborot, axborot urushi, ong, internet, avtoritet.

**Abstract:** Improvements in communications and computer technology, as well as the popularity of the Internet, are entering directly and indirectly among today's youth. For this reason, the philosophical and methodological analysis of the correct and rational use of the Internet by young people is very relevant today.

**Keywords:** information, technology, democracy, technology, structured information, information warfare, consciousness, internet, authority.

Bugungi kunda hayotimizning turli sohalarida axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va jadal rivojlanish yo'lliga o'tishi jamiyatimizga ijobiy ta'sir qilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o'zi, ko'pincha sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko'ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. CHunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lgan shakliga o'tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi. Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg'or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiylar darajasini oshirishni ta'minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi. SHu o'rinda "erkin axborot almashuvi" nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan A.F.Dallesning 1946 yilda qilgan bayonoti e'tiborga loyiqidir. "Agar menga, -deb yozadi A.F.Dalles, - tashqi siyosatning faqatgina bitta tamoyilini tanlab olish huquqi berilganda, men axborotning erkin oqimi prinsipini tanlagan bo'lur edim". G'arbda "axborotning erkin oqimi" deyilganida cheksiz miqdordagi axborotni bir taraflama uzatish, bunda axborot mazmunining hech qanday me'yorlar bilan cheklanmasligi va

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

mazkur axborot u etkazib berilayotgan hududdagi davlat tomonidan nazorat qilinmasligi tushuniladi. Ushbu konsepsiya G‘arbning “demokratiya erkinliklarini targ‘ib etib, boshqa g‘oyalar tarqatilishini imkon qadar cheklashni nazarda tutadi “. Hozirgi kunda ham konsepsiyaning mazmunmohiyati o‘zgarishsiz qolganligini va u yoshlarimizni chalg‘itish, ularning qalbiga, dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish niyatida keng foydalanilayotganini alohida ta’kidlash zarur. Axborotlashuv konsepsiysi o‘ziga, eng avvalo, strukturalashgan axborot texnologiyalarini umumlashtiruvchi katta ko‘lamni yaratishni talab qilib, o‘zida izlash, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va faoliyatni axborot bilan ta’minalash uchun zarur bo‘lgan jami axborot bilan ta’minalash jarayonini qamrab oladi. Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqlik, sifat va ta’sirchanlikni ta’minalash, axborotning dunyo bo‘ylab keng yoyilishi imkoniyatini yaratishda “butun jahon o‘rgimchak to‘ri”ning ahamiyati katta va aynan mana shu omil undan foydalanish ehtiyojini tobora orttirmoqda. Yangi yuz yillikda O‘zbekistonga ham internet shiddat bilan kirib keldi va kundalik hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Dunyoda internet foydalanuvchilari soni 4 milliarddan oshdi. Sayyoramizning 53 foizdan ko‘proq aholisi yoki 4,1 mldr kishi internetdan foydalanish imkoniga ega va bu ko‘rsatkich oshishda davom etmoqda. Ma’lum bo‘lishicha, Er aholisining 96 foizi mobil raqamli signaldan foydalanish hududida joylashgan. Bundan 93 foizini 3G yoki undan yuqoriroq avloddagi signal tashkil qiladi. Yevropa, G‘arbiy yarimsharda va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida mobil raqamli signal bilan qoplanganlik 95 foizni, arab davlatlarida 91 foizni, MDH hududida 88 foizni va Afrikada 79 foizni tashkil qiladi. Mamlakatimizda 2008 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 2 million 200 ming kishidan oshgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib internet xizmatidan foydalanuvchilar soni - 22,1 milliondan oshdi. SHundan mobil internet foydalanuvchilari soni - 19 millionni tashkil etmoqda. Mamlakat bo‘yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi daroji 97 foizni, mobil internet qamrovi esa 87 foizni tashkil etdi. Fan-texnika yutuqlari inson manfaatlari, ezgu maqsadlar yo‘lida xizmat qilishi lozim, albatta. Biroq ayrim kuchlar virtual olamdan g‘arazli niyatları yo‘lida foydalanyotgani ham ayni haqiqatdir. Psixologlarning fikriga ko‘ra, axolining faqat 15-25 foizi axborotni tanqidiy nuqtai nazardan o‘zlashtirishga qodir, qolgan 75 foiz odamlar esa olingan axborotning ta’siriga shundayligicha berilib ketadi. Buning oqibatida ommaviy axborotning hozirgi zamon vositalari va usullari jamiyat boshqaruvchanligini ta’minalaydi. Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib ketdi. Unda kuchli ta’sirga ega bo‘lishning eng maqbul yo‘li, har qancha mablag‘ talab etilishidan qat’i nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash ekani ayon bo‘lib qoldi. Jahonda “axborot urushi” ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi risololar, kinofilmlar tarqatilmoxda, deylik. Tabiiyki, bunday Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar axborotlar jamiyatda ma’lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta’sir etmay qolmaydi. Eng achinarlisi, postindustrial inqilob, axborotlashuv va globallahuv

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

jarayonlari, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor toifalarni ham vujudga keltirdi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ana shu tahdidni bartaraf etish uchun bor imkoniyatni ishga solgan holda izchil kurashmoq zarur. Davlatimizning birinchi rahbari "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida yozadiki, "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinnmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin". Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgan hozirgi sharoitda internet yoshlар uchun asosiy axborot manbaiga aylanib bormoqda. G'arb madaniyatiga taalluqli ba'zi ko'rsatuva saytlar borki, ular mutlaqo axloqqa ziddir. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Ayni o'rinda yana bir fikrni aytib o'tish joiz. "Oynai jahon" seriallar bilan to'lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. CHunki yoshlар asosiy vaqtini shu serialarni ko'rishga sarflashi ta'lim sifatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Darvoqe, gazeta va jurnal sahifalarida chop etilayotgan axborot hamda ma'lumotlarning mazmunan sayozligi ham yoshlarimiz tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi . XXI asr boshida hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi, axborot oqimining kuchayishi oqibatida avtoritet - nufuz masalasi ham yangicha ma'no kasb etayotir. Ba'zi yoshlар o'zining bilim olish va hayotga munosabatini belgilashda ota-onas, ustoz-murabbiyni emas, OAV hamda internetni avtoritet sifatida e'tirof etishi, ulardagi axborot va ma'lumotlarni mutlaq chin deb ishonishi tashvishlanarli holdir. Tajribasi ham bo'lmagan yoshlarning hayotiy tushuncha va tasavvurlarini asosan OAV hamda internet shakllantirmokda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'yimokda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi. Yosh avlodning ma'naviy olamini buzg'unchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e'tibor qaratish kerak, degan masala faylasuflar, gumanitar fan olimlarining diqqat markazida turibdi. Fikrimizcha, yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Prezident SHavkat Mirziyoevning joriy yil 14 mayda qabul qilingan "Elektron tijoratni tezkor rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston hukumati mamlakatni raqamlashtirishga qaratilgan qator ishlarni

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

amalga oshirlmoqda . Hozirgi yoshlarning axborot oqimiga munosabatini shakllantirish aqlidrok, tafakkur tarbiyasining bir yo‘nalishidir. Ota-onalar, ustoz va murabbiylar ta’lim-tarbiya berish jarayonida yoshlarga fikr va bilim o‘rtasidagi farqni tushuntirishi, fikrlarni o‘zaro taqqoslashga, turlarga ajratishga o‘rgatishi kerak. Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir. SHu sababli axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida axborotlashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan mamlakatlar emas, balki ta’lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta’minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko‘rsatmoqda.

**REFERENCES:**

1. Ijtimoiy fikr inson huquqlari // Alisher Mo‘minov.
2. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008, 115-bet.
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari./ Uslubiy qo\_llanma.-T.:Star Poligraf, 2008, -24 bet.
4. 12. Ismayilov, A. Z. Xolmo,,minov, G\_.B. (2020). O,,zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etishning tarixiy-nazariy ildizlari.